



НАУЧНЫЙ
ИМПУЛЬС

ЦЕНТР НАУЧНОЙ
ПОДДЕРЖКИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

НОВОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ: ИССЛЕДОВАНИЕ В XXI ВЕКЕ



Последние
взгляды

Последние
данные

Последние
исследование

И НОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ



Международный современный научно-практический журнал

Новости образования: Исследование в XXI веке

№ 5 (100)
декабрь 2022 г.

Часть 1

Издается с августа 2022 года

Москва 2022

To'xtayeva Dilnoza Boturovna	
ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI Shoyimova Shaxnoza Shaxobiddin qizi	89
MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT KORIDORLARINING RIVOJLANISH TARIXI Aslanov Norqul Nurdinov Murodali	93
SOVET HOKIMIYATINING AN'ANAVIY TA'LIM TIZIMINI CHEKLASH VA TUGATISH SIYOSATI G'ofur Bobonazarovich Xolmo'minov Primova Muhabbat Qahramon Qizi	102
INGLIZ TILI DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI O'RTASIDA MULOQOT QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH Otaboboyeva Feruza Ilhom qizi	106
INSONNING TA'SIR DOIRASIDA IQLIM O'ZGARISHI VA OZIQ OVQAT XAVFSIZLIGI Otaboyeva Inobat Bekjanova Shirin	109
ЎЗБЕКИСТОНДА ПУЛ КРЕДИТ СИЁСАТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ БИЛАН БОҒЛИҚ БЎЛГАН МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ Махмадазизов Элдоржон Марифжон ўғли	112
ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF SIMULATION TRAINING IN SURGICAL SCIENCES Usmonov Xusniddin Qutbidinovich	123
OILADA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARI TIZIMI Amanbaeva Gulistan Kuvanishbay qizi	129
BEHINING INSON SALOMATLIGIGA IJOBIY TA'SIRLARI Sultonmuratova Quboro Qo'chqor qizi	132
BOLALAR MUSIQA FOLKLORI VA UNING KO'RSATKICHLARI Mahmudov Jahongir Saminjon o'g'li	135
MUSIQA DARSIDA JAMOA BO'LIB KUYLASH Mahmudov Jahongir Saminjon o'g'li	137
XONANDALARDA VOKAL MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH Mahmudov Jahongir Saminjon o'g'li	140
ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ АСОСИЙ ТУРЛАРИ Гылыжова Арзигул Маметмыратовна	144
ФАОЛИЯТ КАТЕГОРИЯСИ ШАХСНИНГ КОГНИТИВ ВА ИЖОДИЙ ИМКОНИАТЛАРИНИНГ ИЛМИЙ ВА АМАЛИЙ НЕГИЗЛАРИ Гижижова Арзигул Маметмиратовна	148

SOVET HOKIMIYATINING AN'ANAVIY TA'LIM TIZIMINI CHEKLASH VA TUGATISH SIYOSATI

G'ofur Bobonazarovich Xolmo'minov

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Primova Muhabbat Qahramon Qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3- kurs talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sovet hokimiyatining an'anaviy ta'lim tiziminining o'rnida tashkil etgan tizimi to'g'risida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Maorif, bolsheviklar, jadid maktablari, madrasalar, Oktyabr inqilobi.*

Buyuk Turon zamini tarix va taqdirlari tutashgan turli xalqlarni birlashtirgan makon. Buning zamirida yagona iqtisodiy manfaat bilan birga, siyosiy va madaniy qarashlarning mushtarakligi turadi, desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz. Chunki, Turkiston o'lkasi barcha zamonlarda ham savdo markazi, ham ilm-ma'rifat va san'at o'chog'i vazifasini o'tagan. Maorif tizimining asosi bo'lmish xalq ta'limi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida turli ziddiyatlarga uchragan.

Tarixiy adabiyotlarda XX asr boshlari Turkiston xalq ta'limi izdan chiqqani bilan izohlanib, bunga mahalliy maktablarda eskicha ta'lim-tarbiyaning saqlanib qolishi va savodsizlik sabab bo'lgan, deb hisoblab kelingan. Bu ma'lumotning qanchalik to'g'riligini arxiv hujjatlari va adabiyotlar asosida tahlil qilib, xolisona xulosa chiqarsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'rifatparvar adib va jamoat arbobi Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiya haqida gapirib, shunday yozgan: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot- yo halokat , yo saodat- yo falokat masalasidir. Shuningdek yosh avlodni o'qitish, buning uchun shart-sharoitlar yaratish xalq ommasi uning vakillari uchun dolzarb bo'lib kelgan.

XX asr boshlarida bolsheviklar tomonidan hokimiyat egallangach O'zbekistonda ham sovet maktablari va texnikumlar ochishga alohida e'tibor qaratildi. Jadid maktablari yopildi. Eski maktablar va vaqf maktablari ham tugatildi. Chunonchi, bu davrga qadar O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan maktab- madrasa ta'limi , vaqf maktablari, rivojlangan o'rta asrlardan buyon davom etib kelayotgan edi.

Jadidchilik harakati esa XIX asrning 90 – yillaridan boshlab O'rta Osiyoda tarqaldi. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgan edilar.

XIX asrning o'rtalarida boshlangan istilochilik yurishlari natijasida mustamlakaga aylangan Turkistonda mahalliy aholining an'anaviy ta'lim tizimida o'zgarishlar yuz bera boshladi. O'lkaning boshqa sohalari singari ta'lim tizimida ham mustamlakachi hukumatning manfaatlarini aks ettiruvchi siyosat yurgizildi. Buni , eng avvalo , mahalliy

aholini ruslashtirish maqsadida tashkil qilingan rus- tuzem maktablarining ochilishi va ularning sonining jadal sur'atlarda ko'paytirib borilganligidan ko'rishimiz mumkin.

Mustamlaka davrigacha Turkistonda an'anaviy ta'lim tizimi islom dini qoidalari asosida tashkil qilingan bo'lib, maktab va madrasalarda diniy ta'lim bilan birga dunyoviy fanlar ham o'qitilgan.

1911- yilda 50 ga yaqin jadid maktablari yopib qo'yildi. Jadid maktablarining ochish tashabbuskorlari qattiq nazorat ostiga olindi. 1913- yilga kelib Buxoro amirligida barcha jadid maktablari yopildi.

Urushdan keyingi davrdagi og'ir iqtisodiy vaziyatga qaramay, Sovet hukumati fan va ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor berdi. 1946-1950 yillarda ta'limga sarflangan mablag'lar 1,5 barobar, fanga esa 2,5 barobar oshdi.

Ma'lumki, XIX asr oxirida Turkiston o'lkasida 3.792.774 kishi yashagan bo'lib, maktablar soni 6.027 tani tashkil etgan. Maktabda ta'lim olayotgan o'quvchilar soni 64015 nafarni, ya'ni aholi soniga nisbatan o'quvchilar 1,7 foizni tashkil etgani holda, savodxonlik 19,55 foiz bo'lgan. Oktyabr inqilobigacha Turkiston o'lkasida 70000 o'quvchisi bilan 6600 ta maktab va 9000 talabasi bilan 311 ta madrasa faoliyat yuritgan. Davlat byudjetidan mablag' ajratilmagani sababli O'rta Osiyoda maorif tizimining rivoji uchun asosiy moddiy ta'minot xalq hisobidan qoplab borilgan. Davlat bu soha uchun juda kam mablag' ajratgan. Misol uchun, 1914-yil butun Turkiston xalq ta'limi uchun hukumat atigi ikki yarim million rubl ajratgan. Bundan kelib chiqadiki, bola ta'lim-tarbiyasi asosan ota-onasining iqtisodiy imkoniyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan.

Sovet hukumati ta'lim tizimida islohot o'tkazishga majbur bo'lgan. Ammo rejalashtirilgan islohot xalqlarning milliy qadriyat va urf-odatlariga barham berish orqali amalga oshirilgan.

Inqilobdan so'ng dastlab sovet hukumati chorizm davrida imperiya korchalonlari rus-tuzem maktablari orqali mahalliy millatni ruslashtirishni maqsad qilib qo'yganini anglab, konfessional xarakterdagi ibtidoiy maktablarni ochishga ruxsat bergan. Arxiv ma'lumotlarini kuzata borib, XX asr boshlari Turkiston Xalq maorifi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, maktab yoshidagi bolalar (8 yoshdan 11 yoshgacha) 626 044 nafar bo'lgani aniqlandi. Bulardan 1915-yil 1-yanvarigacha 40 608 nafari (hujjatda 7,4% ko'rsatilgan, ammo bu 6,5% bo'lmoqda – muallif) davlat, zemstvo va boshqa bo'limlar hisobidan moliyalashtirilib o'qitilgan. Shuningdek, mahalliy xalqlar hisobidagi 179 rus-tuzem maktabida 3500 o'quvchi ta'lim olgan.

1917-yil 20-23-may kunlari bo'lib o'tgan Toshkent musulmon o'qituvchilari yig'ilishida "Musulmon o'qituvchilar kengashi" tashkil etilgan. Yig'ilishda rus-tuzem maktablarini milliy maktablarga aylantirish dasturi tayyorlangan. Duma ushbu dastur loyihasini uzoq muhokamadan so'ng tasdiqlagan. 1919-yil 26-dekabrda esa barcha xalqlar mas'uliyatli vazifasi sifatida savodsizlikni tugatish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Davlat va kasaba uyushmalari savodsizlikni tugatish uchun "Har bir savodli savodsizni o'rgatadi" shiori ostida "madaniy yurish" boshlagan. Bu o'sha davr Rossiya bilan bir

qatorida uning tarkibidagi qator davlatlarda ham savodsizlik illatlari talaygina ekanligidan dalolat beradi. Misol uchun, 1920-yilda birgina Turkiston aholisi orasida har 1000 kishiga nisbatan: o'zbeklarning – 36, qirg'izlarning – 42, tojiklarning – 32 va turkmanlarning – 11 nafari savodli ekanligi belgilab o'tilgan. Ammo bu raqamlar qaysi ko'rsatkichlar asosida hisoblab chiqilgani aniq belgilanmagan.

O'sha yillari xalqaro munosabatlarda raqobatlasha olish uchun bilimli kadrlar tayyorlash sovet hukumatining asosiy dasturiga aylangan edi. Shu boisdan sovet maktablarini tashkil etish masalasi inqilobdan so'ng asosiy vazifalardan bo'lib qolgan. Maorif xalq komissarligi tomonidan bu muammoga yechim rejalashtirilib, ma'lum vaqt maktab tarmoqlarini boshqarishning eski tizimi ham saqlanib qolgan. "Hamma maktab ona tilida" shiorining e'lon qilinishi ma'lum darajada madaniy qurilish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Natijada madaniy va ma'rifiy muassasalar o'sishi kuzatilgan. 1921-yilga kelib, yahudiylar uchun kommunalar maktabi – 39 ta (talabalar – 2800 kishi), mahalliy millat uchun kommunalar maktabi – 15 ta (talabalar – 1100 kishi), yahudiylar uchun maktab-internatlar – 63 ta (8123 bola), mahalliy millat uchun maktab-internatlar – 94 ta (7490 bola), yahudiylar uchun bolalar bog'chalar – 41 ta (4410 o'quvchi), mahalliy millat uchun bolalar bog'chalari – 30 ta (2630 o'quvchi), yahudiylar uchun bolalar uylari – 2 ta (66 talaba), mahalliy millat uchun bolalar uylari – 10 ta (578 talaba), yahudiylarning 1-darajali maktablar – 323 taga (70875 o'quvchi) yetgan.

Shuningdek, kasb-hunar maktablari tarmog'i ham kengayadi. Hunarmandlik maktabi – 1 ta, qishloq xo'jalik texnikumi – 6 ta, sanoat-iqtisod bilim yurti – 2 ta, texnika va hunar bilim yurti – 9 ta, tibbiyot bilim yurti – 7 ta, kimyo-farmasevtika bilim yurti – 1 ta, aralash soha bilim yurtlari – 6 ta bo'lib, bularning har birida 200 tagacha talaba tahsil olgan. Bundan tashqari, 6 ta Inpros (Ta'lim instituti, pedagogika institutiga o'xshash narsa – muallif) ham mavjud bo'lib, ularda 1610 ta o'quvchi o'qigan. Sovet va partiya ishchi-mehnatkashlarining siyosiy va umumiy ta'lim maktabi esa 14 ta bo'lib, ulardagi o'quvchilar 1850 nafarni (bundan 1250 tasi mahalliy millat vakili) tashkil etgan.

Oktyabr inqilobidan so'ng Turkistonda maktab va madrasalar qisqarib borganini kuzatish mumkin. Misol uchun, Turkistonda 1908-yil faoliyat ko'rsatgan maktab va madrasalar hamda 1924-yilda mavjud ta'lim muassasalarining ro'yxatini taqqoslaganda, yangi uslubiy dasturlar asosida qayta tashkil etilgan ta'lim muassasalarini qo'shganda, maktablar – 5148 taga, madrasalar – 21 taga kamayganligida ham kuzatiladi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, ilgari Turkistonda mahalliy xalq yozish va o'qish uchun fors-tojik va turkiy-o'zbek tillardan keng foydalangan. Maktablarda fors-tojik, arab va turkiy-o'zbek tili asosiy o'qish tili bo'lgan. Ammo ruslar o'lkani o'z hukmronligi ostiga olganidan so'ng barcha savdo-sanoat va davlat ishlari rus tilida olib boriladi. Ilm-fan va savdo tili sifatida hali to'liq shakllanmagan rus tili Turkiston mahalliy xalqi orasida ham keng yoyilmagan edi. Shuningdek, kadrlar tarkibida soha mutaxassislarining yetishmasligi til o'rganish masalasida muammolar yanada og'irlashishiga sabab bo'lgan.

Sho'ro hukumatining tanazzuli arafasida ta'lim tizimi Vasiy (mutavalliy)lar kengashi tomonidan boshqarib borilgan. 1917-yilda Turkiston o'qituvchilar uyushmasi Viloyat kengashi bo'limi yig'ilishi bo'lib o'tadi. Unda xalq ta'limini boshqarish uchun muvaqqat jamiyat tashkil etish masalasi ko'riladi. Ammo o'sha paytlari bu maqsad yo'lida birlashishga turli-tuman to'siqlar mavjud bo'lgan. Chunki, sohani ayrim hududlarda Bilim yurtlari kengashi, boshqasida – Maktablar komiteti, uchinchisida –Komissarlik, to'rtinchisida – huquqlari cheklangan oldingi inspektorlar boshqarib bormoqda edi [7. B.22]. Shuningdek, 1917-1920-yillar davomida sotsialistik jamiyat qurishga qarshilik doirasida turli to'qnashuvlar – kontrrevolyutsiya, vayronagarchilik, namoyishlar yuz bergan.

Maktablar soni 1920-yilda 2000 dan ziyod (1919-1921 o'quv yillari davomida aniq statistik ma'lumot olinmagan – muallif) deb ko'rsatilgan bo'lsa-da, amalda bu qog'ozda qayd etilgan, xolos. Bunga 1919-yildan moddiy yetishmovchilik, maktabni saqlash uchun ta'minotning yetarli darajada mavjud emasligi sabab bo'lgan. 1922-yilda Turkiston iqtisodiy tizimida og'ir holat yuzaga kelgani uchun maktab xarajatlari aholi tomonidan qoplangan. 1923-yilda maktablar soni qisqargan bo'lsa-da, 496 ta maktab davlat byudjeti hisobidan qoplanishi va aholi tomonidan ta'minlanishi hisobidan qayta tiklanish davri ham bo'lgan.

Xulosa qilib e'tirof etish lozimki, XIX asr oxiri – XX asr boshlari imperiya hukumatining Turkistonda olib borgan mustamlaka siyosati maorif tizimiga ham katta salbiy ta'sir ko'rsatgan. Turkiston xalq maorifi izdan chiqishi quyidagi omillarga bog'liq bo'lgan: 1) moddiy qiyinchiliklar, turli soliq va ishlab berish majburiyatlari; 2) eski maktab o'qituvchilari bolalarni imperiya hukumatiga qarshi tayyorlamogda, degan shubha-gumonlar; 3) zamonaviy yangi usul maktablariga reformatorlar deb qarab, bu tipdagi maktablarning yopilishi; 4) eski maktab tizimini butunlay tugatib, sotsialistik maorif va madaniyatni tiklashga urinishlar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). K.2. /Mualliflar: R.Shamsuddinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev; mas'ul muharrirlar: O'.Mavlonov, Q.Usmonov. Taqrizchilar I.Alimov va boshq. – T.: Sharq, 2010.
2. O'zbekistonning yangi tarixi. K.2. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T.: Sharq, 2000.
3. I.M.Bogdanov, Gramotnost i obrazovaniye v dorevolyutsionnoy Rossii i v SSSR. (istoriko-statisticheskoye ocherki. Moskva: Izdatelstvo "Statistika", 1964.
4. O'zMA. Fond R-34, ro'yxat-1, ish-2167 204 varaq.
5. Konfessionalnaya (islamskaya) shkola v Uzbekistane (1917-1929)
6. Obzor Samarkandskoy oblasti za 1910 god. Izdaniya Samarkandskogo Oblastnogo Statisticheskogo Komiteta. Samarkand-1912.
7. P.I.Serbov, A.D.Nikiforov, «Narodnoye prosveteniye v Uzbekistane». Samarkand-Tashkent: Uzbekskoye gosudarstvennoye izdatelstvo, 1927.
8. Gazeta Uzbekistanskaya pravda. 15-oktyabr 1930 g. №236 (498)
9. Imom Buxoriy saboqlari ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal. – T.: 2020-yil 3 son.